

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### **O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTIDA AKTYORLIK SAN'ATI TA'LIM YO'NALISHIDA MAXSUS SIRTQI BO'LIMNI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA**

Respublikadagi barcha teatrлarni yetuk va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, teatrлarning oliv ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va ularni tayyorlash tizimini sifatli tashkil etishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasи qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligining 2018/2019 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida (keyingi o'rnlarda Institut deb ataladi) aktyorlik san'ati ta'lism yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limni tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi, Moliya vazirligi Institutda 2018/2019 o'quv yilidan boshlab aktyorlik san'ati ta'lism yo'nalishida maxsus sirtqi bo'lim uchun qabul kvotalarini belgilangan tartibda shakllantirsinlar.

3. Belgilab qo'yilsinki:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliv ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son **qaroriga** muvofiq 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Institutning aktyorlik san'ati ta'lism yo'nalishidagi maxsus sirtqi bo'limga ushbu yoki turdosh ta'lism yo'nalishlari bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga, teatr va boshqa madaniyat muassasalarida ta'lism yo'nalishiga muvofiq kamida uch yil amaliy ish stajiga hamda belgilangan tartibda tavsyanomaga ega bo'lgan iqtidorli abituriyentlarni qabul qilish kirish test sinovlarisiz, ijodiy imtihonlar orqali amalga oshiriladi;

Institutda maxsus sirtqi ta'lism jarayonini tashkil etish Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lismni tashkil etish tartibi to'g'risidagi **nizom** asosida amalga oshiriladi;

maxsus sirtqi ta'lism shaklida o'qish to'lov-kontrakt asosida tashkil etiladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi bilan birgalikda 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Institutning maxsus sirtqi bo'limiga talabalarni qabul qilish jarayoni yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi 2018-yil 1-iyungacha:

maxsus sirtqi bo'lim o'quv rejasi va fan dasturlarini tasdiqlash, shuningdek, ularga muvofiq fanlarni o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash;

maxsus sirtqi bo'limda dars berishga yuqori salohiyatga ega bo'lgan yetakchi mutaxassislar va professor-o'qituvchilarni jalg etish choralarini ko'rsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjalarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rnbosari Q.V. Akmalov, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri B.S. Sayfullayev zimmalariga hamda Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 11-dekabr,  
977-son

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2017-y., 09/17/977/0400-son)*